
1-sektor hududidagi "Shakarqishloq" mahallasida shahar hokimining sayyor qabuli o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Qabul jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg'ona shahar xalq qabulxonasi mudiri G'ayratjon Pattayev hamda hokim o'rinbosarlari ham ishtirok etishdi.

Qabul davomida oltmish nafarga yaqin jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar, mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmaga yaqin murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Qabul so'ngida o'tgan sayyor qabullar davomida qayd etilgan murojaatlarning o'rganilishi, ijobiy hal etilishi tahlil qilindi. Fuqarolarning murojaatlariga e'tiborsiz bo'lgan mas'ullar qat'iy ogohlantirildi.

2022-06-30 11:47:33